

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-
TEKNOLOGIYA INSTITUTI**

**“ILM-FAN VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI: MUAMMO VA
YECHIMLAR-2023” MAVZUSIDA
O'TKAZILGAN XALQARO
ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**MAQOLALARI
TO'PLAMI**



**3-4 MAY
2023 yil
Namangan**



**Farg'ona
Politehnika
Institutini**

2-TOM

Ushbu xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Namangan muhandislik-texnologiya institutida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosatining 2023-yil 27-apreldagi 39-son bayoni hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023-yil 2-maydagi "2023-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 118-sonli buyrug'iga shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo'lmaydigan choratadbirlar to'g'risida» gi 2020 yil 5 maydagi PF-5989-sonli Farmoni va «Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida» gi 2019 yil 16 sentabrda PQ-4453-son qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek to'qimachilik va tikuv-trikotaj sohasini yanada takomillashtirish maqsadida, 2023 yil 3-4 may kunlari "Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi: muammo va yechimlar-2023" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi.

Mazkur to'plamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish asosida yengil sanoat korxonalarini iqtisodiy salohiyatini oshirish, paxtani dastlabki ishlash, ipakchilik, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish, charm, poyabzal va mo'yna sanoatining rivojlanishi, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va kadrlar tayyorlashga innovatsion yondashuvlar masalalari bo'yicha respublikamizdagi hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tekshirish va sohadagi ilmiy markazlarning yetakchi mutahassislari, olimlari, professor-o'qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchi, magistr va iqtidorli talabalari, shuningdek, ishlab chiqarish va sanoat korxonalarining mutahassislari tomonidan olib borilayotgan tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan.

В данном сборнике статьи предоставлены результаты научно-исследовательских работ, проведенной ведущими учеными, докторантами ВУЗов, специалистами производственных и промышленных предприятий на основе внедрения инновационных технологий для повышения экономического потенциала предприятий легкой промышленности, первичной переработки хлопка, дальнейшего развития шелковой, текстильной и швейно-трикотажной промышленности, кожевенной, обувной и меховой промышленности, автоматизации технологических процессов и инновационных подходов по подготовке кадров.

This collection of articles presents the results of research carried out by leading scientists, doctoral students of universities, specialists of industrial and industrial enterprises on the basis of the introduction of innovative technologies to increase the economic potential of light industry enterprises, primary cotton processing, further development of the silk, textile and clothing-knitting industries, leather, footwear and fur industries, automation of technological processes and innovative approaches to training personnel.

Tahrir hay'ati:

Rais: f.m.f.d., prof.O.O.Mamatkarimov

A'zolar: t.f.d., prof. Q.M.Xoliqov

t.f.d., prof. J.S.Ergashev

t.f.d., prof. H.T.Bobojanov

t.f.d., dots. J.A.Qayumov

PhD. Z.E.Erkinov

PhD. SH.A.Qorabayev

PhD. J.B.Mirzaboyev

Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi: muammo va yechimlar-2023 xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalari to'plami. 2-Tom. –Namangan: NamMTI, 2023. -443 bet

©Namangan muhandislik-texnologiya instituti, 2023 yil

Дадажонов Ш, Зокиров Г.Д. Ҳалқали эшиш дастгоҳларида табиий ипакни эшишда югурдакдаги ипнинг таранглигини аниқлаш	394
Sadullayev X.M., Murodxonov A.X. The influence of the teacher's factor on the development of students' knowledge of fundamental sciences in the institute of light industry and textile industry	398
Мухторов А.Б., Тошев А.Ю., Қодиров Т.Ж. Серицин оксилени ажратиб олинишининг самарали усуллари	400
Axunbabayev U.O., Turgunbekov A.M., Axadov M.D., To'rayev X.A. Zamonaviy pilla chuvish uskunalarida quyi chizikli zichlikli xom ipak va ulardan ilk bor yangi turdagi nafis, tayyor ipakli gazlamalar ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish	402
Мухамадрасулов Ш.Х., Юлдашева Д.Б. Махаллий хомашёдан янги турдаги қўйлақбоп креп газламасини ишлаб чиқариш технологиясини саъноат корхоналарида жорий этиш	405
Атаханов А.К., Одилхонова Н.О Способ переработки отходов коконов шелка	409
Mullajonova M.M., Anvarjonov A.A. Development of silk industry in uzbekistan	412
Ходжаева З.Ф., Рашидов Н.Э. Сув ўтларнинг ипакчилик саноатидаги ўрни	414
Исроилов Р.И., Хожиматов Р.С., Хожиматов Р.Р. Пиллани қайта ишлаш корхоналарини самарали ривожлантириш истиқболлари	416
Isroilov R.I., Khojimatov R.S., Khojimatov R.R. The development of silk indutry by clustering on the cocoon enterprises	418
Khojimatov R.S., Khojimatov R.R. Essential role digital economy on the efficiocy of cocoon processing enterprises	420
Jumyazova M.R., Mamadalieva D.A. Development of the coconut industry	423
Xomidov V.O., Yakubov N.J., Tojiboyeva G.J. Pillani qayta ishlashdan hosil bo'lgan seritsin eritmali chiqindi suvdan ko'mir briket olishda foydalanish	425
Ахунбабаев О.А., Давронов Б.В. Табиий ипак ва пахта аралашмасидан тўқилган тўқималарни ишлаб чиқаришда такомиллаштирилган технологиясининг синови	428
Nazarov Z.N., Yo'ldoshev I.B., Jaloldinov J.B., Xudoyberdiyev N.O. To'qimachilik sanoati chiqindilarini qayta ishlashning ahamiyati va ularni boshqarish metodlari	431

It should be mentioned that the threads are hypoallergenic and do not scratch the skin because natural fibers make up the majority of their makeup. Check work and machine embroidery are the two principal uses of shell filaments.

REFERENCES: .

1. Information from the internet
2. Токторбаева Э.И., Лопасова Л.В., «Особенности изготовления скроев изделий из пушно-мехового полуфабриката», Учебное пособие. М.: 2001-51с

СУВ ЎТЛАРНИНГ ИПАКЧИЛИК САНОАТИДАГИ ЎРНИ

таянч докторант З.Ф.Ходжаева, доцент Н.Э.Рашидов
Бухоро давлат университети

Аннотация: Мақолада сувўтлардан фойдаланиб ипак куртини бокишнинг самарали усуллари хақида маълумотлар келтирилган

Калим сўзлар: тут ипак курти, сувўтлар, штамм, гидрокимё

Аннотация: в статье представлена информация об эффективных способах кормления шелкопрядов с использованием водорослей

Ключевые слова: тутовый шелкопряд, водоросли, штамм, гидрохимия

Annotation: the article provides information on effective ways to feed silkworms using algae

Keywords: mulberry silkworm, algae, strain, Hydrochemistry


Қириш: Сувўтлар орасида кимёвий таркиби жихатидан боқиладиган хайвонлар:қорамол, қўй, чўчка, товуқ, тут ипак курти, балиқлар учун ҳар қандай ем-хашак ва омихта емўрнини босадиган турлари аниқланган. Уларнинг биологик хусусиятлари ўрганилиб, лабораторияда ва саноат миқёсида етиштириш технологиялари ишлаб чиқилган. Шундан сувўтлардан яшил сувўтлар бўлимига мансуб *Chlorella*, *Scenedesmus*, *Ankestrodesmus*, қўқ-яшил сувўтларга мансуб *Nostoc*, *Anabaena* каби туркумларнинг турлари ҳисобланади[1]. Бу сувўтларнинг ҳар хил мақсадларга йўналтирилган кўплаб штаммлари олинган ва уларнинг физиологик ва биокимёвий хусусиятлари бири-биридан фарқ қилиши аниқланган. Сувўтларнинг штаммлари учун ихтисослаштирилган махсус озиқа муҳитлар ҳам яратилган. Кўп қўлланиладиган озиқа муҳитларидан Кноп, Тамия, «04», Пратталар шулар жумласидан.

Тадқиқот услублари. Сувўтларнинг экологик гуруҳлари алоҳида йиғилади. Планктонлар № 76-78 рақамли планктон тўрда, бентослар ва перифитонларни зовурдаги бетонланган жойлардан, тош, юксак ўсимликларга ёпишган жойларидан скальпел, ўткир пичоқ билан маълум майдончадан (10 см²) олинди[4]. Ипсимон сувўтларни (*Spirogyra*, *Cladophora*) илмоқли таёқ ёки қўлда йиғиб олинди. Намуналарни бир қисмига озиқа муҳити қўшилди, қолган қисмини 4% ли формалин эритмаси билан фиксация қилинди. Айрим тирик намуналар жойнинг ўзида аниқланди[1,2].


2020 йилдан бошлаб Денгизқўл коллектори сувининг гидрокимёвий таркибини аниқлашда мавсумий намуналар йиғилди, сувўтларнинг тур таркиби,

систематикаси, доминант турлар ҳамда индикаторлик хусусиятлари қўлланиш соҳалари ўрганилиб келинмоқда[3].

Тадқиқот натижалари: Биологик йўл билан тозаланган коллекторлар сувлари ва унда ҳосил бўлган биомассалар халқ хўжалигининг турли соҳаларида ишлатилади. Маълумки, республикамизнинг кўпгина вилоятларида, сувўтларнинг кўпгина доминант турларидан, *Ch. pyrenoidosa* ёки *S. obliquus* суспензиясидан кенг миқёсда хусусан, тут ипак қуртини кўпайтиришда фойдаланилди.. Бунинг натижасида тут ипак қуртининг ҳосили кўпайиб ва ипак ўраш жараёни жадаллашиб, қалин толали ипаклар олишга эришилмоқда. Коллекторлар сувини сувўтларни ўстиришда фойдаланиш ва уларни ҳар хил чиқинди маҳсулотларидан тозалаш мақсадида Денгизкўл коллекторининг бир канча оқимларида тажрибалар олиб борилди. Тозаланган коллектор сувлари эса қишлоқ хўжалигининг турли соҳаларида фойдаланиб, экинларини суғориш учун ишлатилади. Қишлоқ хўжалик экинларни тозаланган коллектор сувларида сувўтлари суспензияси билан суғориш уларнинг ҳосилдорлиги 25-50% га оширади[2,3].



1. *Chlorella vulgaris*



2. *Scenedesmus obliquus*

1. Хужайра ўрта катталиқда, диаметри 3,5-5 мк. Бўлинишдан олдин хужайра бироз катталашади. Периниоиди билинмайди. Штамм иссиқликнинг кенг диапозонида яшашга мослашган. Таркибида витаминлардан Е 180, В1-4,2, В2-7,0, РР- 140, В6 5,3мгк/г аниқланган. Каротин миқдори 216,5-858,2 мг/кг.

2. Хужайрасининг узунлиги 9-15 мк, эни 3,5-5,4 мк. Хроматофораси пластинкали. 1 периниоидли. Ценобийлари ўзаро ёнтомондан бирикади. Унинг таркибида 6, 21 % углевод, 52, 8-53, 9 % оқсил, 10, 4-12, 4 % ёғ, 8, 45-8, 94 % азот витаминлардан иборат.

Хулоса қилиб айтганда, коллектор сувига экилган *Chlorella vulgaris* дан бир кунда 225-250 кг хўл биомасса олиниб, уни қайта ишлаш натижасида, озик-овқат ва чорвачилик учун керакли оқсилни, каротиноидлар, хлорофиллин натрий, хитин ва бошқа физиологик фаол моддаларни ажратиш олиш мумкин.

АДАБИЁТЛАР:

1. Н.Э.Рашидов Бухоро вилояти коллекторларининг альгофлораси (Монография) Бухоро - “Дурдона” 2020 С. 7-13.

2. Xodjayeve, Z. (2022). Сезонный анализ рва Денгизкуль. *Центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4984

3. Xodjayeve, Z. (2022). Географическое положение и экологический анализ коллектора денгизкуль. *центр научных публикаций (buxdu.uz)*, 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5782

4. Алёнкин О.А. Химический анализ вод суши. - Л.: Гидрометеониздат, 1954.-199 с.

ПИЛЛАНИ ҚАЙТА ИШЛАШ КОРХОНАЛАРИНИ САМАРАЛИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

и.ф.н., доцент Исроилов Рустамбек Ибрагимович, т.ф.н., доцент Хожиматов
Расулжон Солиевич, PhD Хожиматов Равшанбек Расулжонович,
Наманган муҳандислик –технология институти

Мамлакатимиз қишлоқ хўжалигининг асосий тармоқларидан бири ҳисобланган пиллачилик тармоғи қадим, тарихий ва ўзининг кўп асрлик анъаналарига эга бўлган соҳалардан биридир. Маълумки, табиий ипакнинг ўзига хос нодир хусусиятлари, яъни уни иктисодиётнинг айрим тармоқларида алмаштириб бўлмайдиган хом ашё ҳисобланиши соҳа ривожланишининг асосий омили ҳисобланади. Бироқ, республикамызда 2009-2016 йиллар мобайнида пиллачилик тармоғини қишлоқ хўжалигинида тутган ўрни кескин пасайди. Саноатда нафақат пиллани қайта ишлаш даражаси тушиб кетди, тармоқни бошқарув тизимида ҳам етарлича камчилик ва муаммоларни вужудга келтирди. Бироқ, 2017 йилга келиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Ўзбекипаксаноат” уюшмаси ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ-2856 сон қарори [1] тасдиқлангандан сўнг, ушбу тармоқда ҳам ўзгаришлар вужудга келди, соҳани янада ривожлантириш тизимли йўлга қўйилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2017-2021 йилларда пиллачилик тармоғини комплекс ривожлантириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги қарорига асосан тармоқни янги босқичга кўтариш борасида устувор мақсад ва йўналишлар белгилаб берилди [2]. Охириги йилларда пиллачиликни ривожлантиришга бўлган чуқур эътибор натижасида республика пиллачилик тармоғининг асосий кўрсаткичлари ҳам кескин ўсиб борган [3].

Юқоридаги 1-жадвал маълумотларидан кўриниб турибдики, Мамлакатимиздапилла хомашёсини ҳажмини ошириш мақсадида, 2018 йилда тажриба сифатида такрорий пилла етиштириш синовдан ўтказилди. Ҳозирги кундапилла хомашёсини тайёрлаш мавсумлари тўрт мавсумда амалга оширилмоқда. Хусусан, 2018 йилда тайёрланган пилла хомашёси 18,0 минг тонна, 2019 йилда 19,6 минг тонна, 2020 йилда 22,7 минг тонна ҳамда 2021 йилда 22,7 минг тоннани ташкил этган бўлса, 2022 йил якунларига кўра